

ORCID: 0000-0001-8791-8970

DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING RAQAMLI DISKURSDAGI TALQINI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Mahmudova Umida Ural qizi

Qarshi davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

umidamahmudova1010@gmail.com, +998906751010

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslik antropotsentrik yondashuvda diskurs tushunchasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonni til bilan bog'liq barcha jarayonlar markaziga qo'yuvchi bu yo'nalish psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarning jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Aynan antropotsentrik tamoyil asosida shakllangan bu sohalarda diskurs yetakchi konseptual tushuncha hisoblanadi.

Diskurs tushunchasi ko'p qirrali va murakkab bo'lib, tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bu tushunchani chuqurroq anglash uchun tilshunoslikda mavjud bo'lgan bir necha ta'riflarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Xususan, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan diskurs – "muayyan turdagi ijtimoiy mansublikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan harakatlar, o'zaro munosabatlar, fikrlash usullari, e'tiqod, baholash kabi omillarning tildagi integratsiyasi natijasi" sifatida tushunilib, bu yondashuvda diskursning kognitiv asoslariga urg'u beriladi.

Pragmalolingvistik yondashuvda esa diskurs "lingvistik va ekstralingvistik omillar asosidagi nutqiy faoliyat jarayoni va natijalar majmuyi" deb ta'riflanadi. Bu yondashuvda diskursning kommunikativ-pragmatik jihatlari, ya'ni adresant-medimatn-adresat tizimi orqali yuzaga keladigan pragmatik munosabatlar zanjiri muhim ahamiyat kasb etadi.

Kirish. Diskurs haqidagi ta'riflardan biri N. Arutyunovaga tegishli bo'lib, ko'pchilik tilshunoslar tomonidan ma'qul deb topilgan. Unga ko'ra, diskurs – "ekstralingvistik (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa) omillar bilan uyg'un, voqelik nuqtayi nazaridan qaralayotgan medimatn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida odamlarning o'zaro munosabati va ularning kognitiv jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladigan nutq"¹.

Diskurs va medimatn tushunchalari o'rtasidagi munosabat masalasi tilshunoslikda ko'p muhokama qilinadi. Medimatn statik, tugallangan nutqiy mahsul bo'lsa, diskurs dinamik, jarayon sifatida qoraladi. Sh.Safarovning ta'kidlashicha, "maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va so'zlovchi istagi bilan bog'liq bo'lmagan holda tinglovchi idrokida hosil bo'ladigan informativ mazmun bir-birini inkor etmaydi,

¹ Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1990. — С. 136-137.

balki o'zaro birikib muloqotning samaradorligini ta'minlovchi omilga aylanadi. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg'unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi"².

Shu ma'noda diskurs medimatnga nisbatan keng tushuncha bo'lib, u nafaqat medimatni, balki unga bog'liq bo'lgan ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Medimatnda ifoda etilgan axborot bilan birga, bu axborotni qabul qiluvchi adresat va uni uzatuvchi adresant, ularning bilim darajasi, sotsial maqomi, kommunikativ maqsadlari ham diskurs tarkibiga kiradi.

Etimologik jihatdan «discursus» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, dastlab ma'nosi «aylanib yurmoq», «yugurmoq», «harakat qilmoq» ma'nolarini anglatgan. **Adabiyotlar tahlili.** XIX asrga kelib, bu atama fransuz tilida alohida terminologik ma'no kasb etib, dialogik nutqni ifodalay boshlagan. XIX asr o'rtalarida, xususan, 1860-yilda Y. Grim tomonidan nashr etilgan nemis tilining «Deutsches Wörterbuch» lug'atida «diskurs» so'zining ikki asosiy ma'nosi qayd etiladi: 1) muloqot, suhbat; 2) nutq, ma'ruza. Ushbu davrda diskurs tushunchasi hali sistemali lingvistik kategoriya sifatida shakllanmagan edi³.

Diskurs nazariyasining shakllanishi XX asrning 60-yillaridan boshlangan bo'lib, bu davrda medimatni tadqiq qilishga yo'naltirilgan yondashuvlarda paradigmalar o'zgarishlar sodir bo'ladi. Z.Harris 1952 yilda «Discourse Analysis» nomli maqolasida diskursni "gaplar ketma-ketligi" sifatida ta'riflagan⁴. Biroq Benvenist 1966-yilda o'zining «Problèmes de linguistique générale» asarida diskursga kengroq ta'rif berib, uni "gapiruvchi shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nutq" deb izohlagan⁵. Unga ko'ra, diskurs bu oddiy jumlar yig'indisi emas, balki til tizimining grammatik qoidalaridan ma'lum darajada farq qiluvchi, nutqiy aktning subyektiv belgilarini o'zida aks ettiruvchi hodisa deya ta'kidlagan.

Diskurs atamasining ko'p ma'noliligi T.Nikolayeva tomonidan tuzilgan "Medimatn tilshunosligi atamalarining qisqacha lug'ati"da qayd etilgan bo'lib, unda quyidagi asosiy ma'nolar ajratib ko'rsatilgan:

1. medimatn;
2. og'zaki shaklda ifodalangan medimatn;
3. dialogik nutq;
4. semantik jihatdan bog'langan fikrlar guruhi;
5. og'zaki yoki yozma nutqiy asar sifatida qaraladigan til birligi⁶.

Diskurs nazariyasining shakllanishi til haqidagi ilmiy qarashlarning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini anglatib, tadqiqotchilar oldiga diskursni lingvistik jihatdan tavsiflash kabi murakkab vazifani qo'ydi. U medimatn tilshunosligi doirasida

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 66 б.

³ Grimm, J., & Grimm, W. [1860]. *Deutsches Wörterbuch*. Leipzig: S. Hirzel. 2-Band, S. 1029-1030.

⁴ Harris, Z. S. [1952]. *Discourse Analysis*. *Language*, 28[1], 1-30. <https://doi.org/10.2307/409987> 2 p.

⁵ Benveniste, É. [1966]. *Problèmes de linguistique générale*. Paris: Gallimard. [Bunda ayniqsa 5-bobga qarang, "L'homme dans la langue", pp. 225-285].

⁶ Николаева Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики. – М.: Прогресс, 1978. 467 с.

shakllangan bo'lsa-da, bu sohadan butunlay ajralmagan, balki tadqiqot obyektni aniq farqlash va "medimatn" hamda "diskurs" tushunchalarini chegaralash sari yo'naltirilgan.

Diskurs kommunikativ hodisa sifatida nutq (verbal muloqot) va medimatn (muloqot davomida qayd etilgan til material) o'rtasida oraliq bo'g'in hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, diskurs – bu real nutqiy jarayon, bilish faoliyati bilan bog'liq kognitiv holat bo'lsa, medimatn – nutqiy faoliyat natijasi bo'lib, muayyan yakunlangan shaklda ifodalanadi. Mazkur qarama-qarshilik real gapirish jarayonini uning natijasidan ajratish orqali medimatnning diskurs sifatida qabul qilinishi faqatgina u real idrok etilganda va uni qabul qilayotgan shaxs tafakkurida aks etganida yuzaga kelishini anglashga olib keladi.

G.Vidousen "medimatn" va "diskurs" tushunchalarini farqlash maqsadida "vaziyat" tushunchasini ham kiritib, diskursni "medimatn" + "vaziyat" shaklida talqin qiladi. Ushbu yondashuv fan oldida faqatgina medimatnning ichki xususiyatlarini emas, balki uni muloqot jarayonida muayyan auditoriyaga yo'naltirilgan xabar sifatida tushunish zaruratini ko'rsatadi. Shu sababli, diskurs muallif va adresat ehtiyojlarini aks ettiruvchi til hodisasi sifatida qaraladi⁷.

Fransuz tilshunosi E.Benvenist diskursni "gapiruvchi shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nutq" deb izohlaydi. Unga ko'ra, diskurs oddiy jumlar yig'indisi emas, balki uning yuzaga kelishi tilning grammatik tizimi bilan ma'lum darajada uzilish sodir bo'lishini anglatadi. Tadqiqotchining fikricha, diskurs tilshunos uchun empirik hodisa bo'lib, u nutqiy akt subyekti izlarini, tilni qo'llayotgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan formal belgilarni o'zida mujassam etadi⁸.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, diskursning asosiy xususiyatlaridan biri – uning aniq kommunikativ akt ishtirokchilari, ya'ni gapiruvchi va tinglovchi bilan bog'liqligi hamda gapiruvchining tinglovchiga ma'lum bir tarzda ta'sir o'tkazish niyatidir. Suhbat diskursi tuzilishi individuallarning kommunikativ harakatlarini o'z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi: nutqiy kontaktga kirish, suhbat mavzusini ilgari surish va uning tasdiqlanishi, kommunikativ akt davomida rollarning almashinishi, suhbat mavzusining o'zgarishi hamda muloqotdan chiqishdan iborat. Ushbu jarayonlarning barchasi ichki va tashqi omillar majmuasi bilan belgilanadi.

Lingvo-kommunikativ yondashuv nuqtayi nazaridan G. Orlov diskursni (tabiiy) nutq kategoriyasi sifatida baholab, uni og'zaki yoki yozma nutqiy mahsulot shaklida materiallashgan, ma'nosi va tuzilishi jihatidan nisbatan yakunlangan hodisa sifatida talqin qiladi. Diskurs uzunligi jihatidan muayyan cheklovlarga ega emas: u alohida gap (jumla)dan tashqariga chiqadigan sintagmatik zanjirdan tortib, butun bir hikoya, suhbat, tavsif, ko'rsatma yoki ma'ruzaga qadar bo'lishi mumkin⁹.

⁷ Widdowson, H. G. [1979]. *Explorations in Applied Linguistics*. Oxford: Oxford University Press. ["Text and discourse"] 90 p.

⁸ Бенвенист Э. Общая лингвистика / Пер. с франц. Ю. Н. Караулова и др.; Под ред. Ю. С. Степанова. – М.: Прогресс, 1974. – 293 с.

⁹ Орлов Г.А. Современная английская речь. – М.: Высш. шк., 1991. – 14 с

Diskurs tushunchasi yakunlanganlik, yaxlitlik, bog'liqlik kabi parametrlar bilan tavsiflanadi va u nafaqat jarayon (sotsiomadaniy, ekstralingvistik va kommunikativ-situatsion omillar ta'sirini hisobga olgan holda), balki muayyan qayd etilgan medimatn shaklida natija sifatida ham qaraladi. Shunday qilib, diskurs tushunchasi evolyutsion tarzda kengayib bordi va medimatnning asosiy xususiyatlaridan tashqari, u reallikda amalga oshiriladigan shart-sharoitlarni ham o'z ichiga ola boshladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu qisqacha ta'rif zamonaviy davr medimatn tilshunosligi bo'yicha ko'plab tadqiqotlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida qabul qilingan. V.Demyankov xorijiy tilshunoslik sohasidagi yangi ishlarga tayanib, diskursga shunday ta'rif beradi, bu ta'rif uning funksional tabiatini ochib berib, oldingi izlanishlardan ancha chuqurroq yondashuvni aks ettiradi:

"Diskurs – bu ixtiyoriy medimatn parchasi bo'lib, u bitta gap yoki mustaqil gap qismidan ortiqroq bo'lgan birlikdan iborat. U ko'pincha, lekin har doim ham emas, muayyan asosiy konsept atrofida shakllanadi; unda ishtirokchilar, obyektlar, sharoit, vaqt, harakatlar va shu kabi elementlarni tavsiflovchi umumiy kontekst yaratiladi. Diskurs, birinchi navbatda, gaplarning ketma-ketligiga emas, balki diskursni yaratgan va uni talqin qilayotgan shaxslar tomonidan barpo etilayotgan umumiy dunyoqarashga bog'liq. Diskurs elementlari esa quyidagilardan tarkib topadi: 1) bayon qilingan hodisalar; 2) ushbu hodisalarning ishtirokchilari; 3) performativ ma'lumotlar; 4) "hodisalar", ya'ni: a) hodisalariga hamrohlik qiluvchi sharoit; b) hodisani izohlovchi fon ma'lumotlari; v) hodisalar ishtirokchilarining baholanishi; g) diskursni hodisa bilan bog'laydigan axborot"¹⁰.

Shuningdek, Y. Stepanov diskursni dunyo, fakt va sabab tushunchalari bilan bog'lab, unga lingvo-falsafiy yondashuv beradi. Stepanov diskursni "til ichidagi til" sifatida, o'ziga xos ijtimoiy reallik shaklida izohlaydi. Bunda diskursni oddiy til elementlari – uslub, grammatika yoki leksikaga keltirib bo'lmaydi. U *"avvalo va asosan medimatnlarda mavjud bo'lib, bu medimatnlar ortida o'ziga xos grammatika, leksik tizim, so'z ishlatish va sintaksis qoidalari, maxsus semantika, natijada esa – o'ziga xos dunyo turadi"*¹¹. Y.Stepanov diskursning medimatnlarda mavjudligini tan olsa-da, uning diskursni alohida, mumkin bo'lgan dunyo sifatida tushuntirishi ushbu tushunchani medimatn doirasidan ancha kengroq qamrovga olib chiqadi.

Shunday qilib, diskurs tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirsak, zamonaviy tilshunoslikda bu tushuncha medimatnga yaqin ma'noga ega bo'lsa-da, til vositasidagi muloqotning dinamik, vaqt bo'ylab rivojlanish xarakteriga urg'u beradi. Bunga qarama-qarshi ravishda, medimatn ko'proq statik obyekt, ya'ni til faoliyatining yakuniy natijasi sifatida tasavvur etiladi.

Sh.Safarov ta'kidlaganidek, muloqot jarayonida milliy-madaniy qobiq mavjud

¹⁰ Демьянков В.З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века // Язык и наука конца XX века. – М.: Ин-т языкознания РАН, 1995. – 7 с.

¹¹ Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности // Язык и наука конца XX века: Сб. ст. / Под ред. Ю.С. Степанова. – М.: РГГУ, 1995. – 45 с.

bo'lib, u etnik-etik normalar to'planishidan tashkil topadi. Ushbu qobiq muloqot strategiyasi va taktikasini bir xilda boshqarib boruvchi qoidalar tutashadigan maydondir¹². Raqamli muhitda muloqot qiluvchi turli mamlakatlar va madaniyat vakillari o'zining milliy xususiyatlarini diskursda aks ettiradi.

Raqamli diskursni tadqiq etishda bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanish mumkin. Bu borada zamonaviy tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan diskursiv tahlil usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, kognitiv yondashuv, pragmalingsvistik yondashuv, lingvomadaniy yondashuv, psixolingsvistik yondashuv, sotsiolingsvistik yondashuv va boshqalar.

Kognitiv yondashuv diskursni tadqiq etishda kommunikantlarning bilim strukturasi, kognitiv jarayonlari, dunyoni idrok etish modellari kabi omillarni e'tiborga oladi. Pragmalingsvistik yondashuv esa kommunikantlarning maqsadlari, kommunikativ strategiyalari, nutqiy ta'sir usullari, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar kabi jihatlarni o'rganadi.

Lingvomadaniy yondashuvda esa diskursning milliy-madaniy xususiyatlari, til birliklarining lingvomadaniy jihati, madaniy presedent birliklar, milliy konseptlar kabi xususiyatlari tadqiq etiladi. Raqamli muhitdagi diskursda esa bu jihatlarga qo'shimcha ravishda texnologik va interaktiv omillar ham e'tiborga olinadi.

V. Karasik shaxsga va statusga-yo'naltirilgan diskursni ajratib ko'rsatadi. Shaxsga-yo'naltirilgan diskurs dunyoni anglash maqsadidagi kundalik-maishiy muloqotni, statusga-yo'naltirilgan diskurs esa – ijtimoiy guruhlar yoki institutlar vakillarining bir-biri bilan, shakllangan jamoat institutlari doirasida o'z statusli-rolli imkoniyatlarini amalga oshirayotgan insonlar bilan nutqiy o'zaro ta'sirini anglatadi, ularning soni jamiyatning aniq rivojlanish bosqichidagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, V. Karasikning fikriga ko'ra, diskursning asosiy mezonini ichki dunyoni ochib berish va ijtimoiy statusni ochib berishga qarama-qarshi qo'yishdir¹³.

Xulosa. Raqamli muloqot sohasida kuzatilayotgan zamonaviy yo'nalishlar – mobil aloqa rivojlanishi, algoritmlarga asoslangan muloqotning o'sishi, turli tarmoqlar bo'ylab aloqa shakllarining paydo bo'lishi, muloqotning qismlarga bo'linishi, muloqot uslublarining birlashishi – aloqa tizimining o'zgarishi va muloqot nazariyasining yangi bosqichga o'tishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, muloqot nazariyasi va raqamli aloqa tadqiqotlari sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar hozirgi zamon aloqa jarayonlarini chuqurroq tushunish, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yangicha talqin etish imkonini beradi.

¹² Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. - Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 47 с

¹³ Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс: монография [Текст] / В. И. Карасик. – М.: ИДТГК «Гнозис», 2004. – 230с